

UDK: 619:618.17-002:636.22/28.

SIGIRLAR GINEKALOGIK KASALLIKLARNI OLDINI OLISHDA PREPARATLAR SAMARASI

*H.S.O'rinov, R.I.Bobomurodov - tayanch doktorantlar
O.U. Kuldashv v.f.d., katta ilmiy xodim, ilmiy rahbar
Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti.*

Annatsiya: Maqolada sigirlarda tuqqandan keyingi uchraydigan kasalliklarni oldini olishda sutdan chiqarilgan sigirlarni aloxida ajratilib ularga preparatlar yuborilib tug'ish jarayonini yengil kechishi, tuqqandan keyingi servis davrini qisqartirishda va otalanishni yuqori bo'lishida preparatlar samarasi keltirilgan.

Kalit so'zlar: akusherstva, subinvolyusiya, sariq tana, endometritlar, ginekologiya, prozerin, klotoprostin, biostimulgin, plotsentin, karbokaz, ixglyukovet, sigir, tana, g'unojin.

Аннотация: В статье изучена эффективность препаратов в профилактике послеродовых заболеваний коров, при отделении коров-отъемышей и назначении им препаратов для облегчения родового процесса, сокращения послеродового сервис-периода и повышения плодовитости.

Ключевые слова: акушерство, субинволюция, желтое тело, эндометрит, гинекология, прозерин, клотопростин, биостимулгин, плотцентин, карбоказе, иксглюковет, корова, организм, корова.

Abstract: The article examines the effectiveness of drugs in the prevention of postpartum diseases in cows, when separating weaned cows and prescribing them drugs to facilitate the birth process, shorten the postpartum service period and increase fertility.

Key words: obstetrics, subinvolution, corpus luteum, endometritis, gynecology, proserin, clotoprostin, biostimulgin, plotcentin, carbocase, ixglucovet, cow, organism, cow.

Kirish. Respublikamiz aholisini sifatli, oqsilga boy hayvon mahsulotlari (go'sht, sut, tuxum va boshqalar) bilan ta'minlash hozirgi davrning dolzarb muammosi hisoblanadi. Bu masalani hal qilish uchun muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganidek mamlakatimizdagi chorvachilik tarmog'ini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilish lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 yanvardagi PQ-4576-son «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2022 yil 8 fevraldagi PQ-121-son «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risidagi»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

Chorvachilikni rivojlanishida to'siq bo'layotgan muammolardan biri bu Respublikamiz tabiiy iqlimining tez o'zgaruvchanligi, ekologik nosog'lom hududlarning ko'pligi, urg'ochi hayvonlarda jinsiy a'zolari kasalliklarini keltirib chiqaradi va buni o'z vaqtida aniqlab davolamaslik, davolash va oldini olishda yaxshi samara beradigan yangi zamonaviy preparatlarni yo'qligi borlari ham yaxshi samara bermasligidandir. Shular natijasida hayvonlar jinsiy a'zolarini tuqqandan so'ng o'z holiga qaytarib bo'lmas surunkali patologik holatlarga olib kelishi, Respublika chorvadorlari oldida turgan asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda chorvo xo'jaliklarda sigirlar qisir qolishini asosiy sabablaridan biri bu tuqqandan keyingi ginekologik kasalliklar natijasidadir.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdikim 30% tuqqan sigirlarda tuqqandan so'ng yo'ldosh ushlanib qolish, 20-25 % endometritlar, 15-20% sigirlarda tug'ish jarayonini qiyin kechishi kuzatiladi.

Ishlab chiqarish sharoitida plasentin, ixglyukovet va karbokaz preparatlarining samaradorligini o'rganish bo'yicha tajribalar sigirlardagi tuqqandan keyingi kasalliklarni oldini olish bo'yicha preparatlar samarasini o'rganish bo'yicha tajribalar olib borildi. Sutdan chiqarilgan 7

oylik bo'g'oz sigirlarda tuqqandan keyingi (yo'ldosh ushlanib qolishi, bachadon subinvolyusiyasi va endometritlarni) kasalliklarini oldini olish bo'yicha tajribalar Qoroqolpog'iston Respublikasi Ellikqala tumani, «Amir Oqchashmasi» fermer xo'jaligidagi 70 bosh sigirda, Qashqadaryo viloyati Kitob tumani «Sora invest» fermer xo'jaligidagi 56 bosh, Samarqand viloyati Pasdarg'om tumani «Beshbola» fermer xo'jaligida 63 bosh, Payariq tumani «Bibisora» fermer xo'jaligida 25 bosh sigirlarda olib borildi.

Tajribada bo'lgan sutdan chiqarilgan 7 oylik bo'g'oz sigirlar alohida guruhlariga ajratilib, ularning tug'ishiga 15 kun qolganda va tuqqan kunlari yuqorida nomlari keltirilgan preparatlar bilan terisi ostiga va muskul orasiga qo'llanildi. Har bir xo'jalikda tajriba guruhiga nisbatan nazorat guruhlari olinib ularga preparat qo'llanilmadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida tajribadagi plasentin qo'llanilgan 70 bosh sigirdan tuqqandan keyingi kasalliklar bilan kasallanish 2 bosh sigirda kuzatildi, kasalliklarni oldini olish samarasi 97,1% ni tashkil qildi. Sigirlarni tuqqandan keyingi kuyga kelib otalanish davri (servis davri) 54 kunni tashkil etdi. Preparat qo'llanilmagan nazorat guruhida bo'lgan sigirlardan tuqqandan keyin 6 boshida yo'ldosh ushlanib qolishi va 5 bosh sigirda endometrit qayd etildi, servis davri 83 kunni tashkil etdi.

Kitob tumani «Sora invest» fermer xo'jaligida 56 bosh sigirga ixglyukovet preparati tuqqandan keyingi jinsiy kasalliklarni oldini olish maqsadida qo'llanilganda ulardan 3 bosh sigirda tuqqandan keyingi endometrit bilan kasallanish kuzatildi, samaradorlik 94,6% tashkil etib, sigirlarni kuyga kelib otalanish ya'ni servis davri 61 kunni tashkil etdi. Preparat qo'llanilmagan 32 bosh sigirdan 8 boshi tuqqandan keyingi yo'ldosh ushlanib qolishi va endometrit bilan kasallanishi kuzatilib, ularda servis davri 80 kunni tashkil qildi.

Pasdarg'om tumani «Beshbola» fermer xo'jaligida 63 bosh to'q bo'g'oz sigirlarga karbokaz preparati qo'llanilganda, sigirlarda tuqqandan keyingi jinsiy kasalliklar bilan kasallanish kuzatilmadi, samaradorlik 100% tashkil etib, tuqqandan keyingi kuyga kelib otalanish, servis davri 55 kunni tashkil qildi.

Sigirlar tuqqandan keyingi jinsiy kasalliklarini oldini olishda preparatlar samaradorligi

Xo'jaliklar	Guruh	Bosh soni	Yil davomida olingan natijalar
Ellikqala tumani «Amir oqchashmasi» fermer xo'jaligi	1-tajriba gr. plasentin preparati teri ostiga qo'llanildi.	70	2 bosh sigir endometrit bilan kasallandi, samaradorlik 97,1% ni tashkil etdi. Sigirlarning servis davri 54 kunni tashkil etdi.
	2-nazorat gr. preparat qo'llanilmadi	35	6-bosh sigirda yo'ldosh ushlanib qoldi va 5 bosh sigir endometrit bilan kasallandi. Servis davri 83 kunni tashkil etdi.
Kitob tumani «Sora invest» fermer xo'jaligi	1-tajriba gr. ixglyukovet preparati teri ostiga qo'llanildi.	56	3 bosh sigir tuqqandan keyingi endometrit bilan kasallandi. Samaradorlik 94,6% ni tashkil etdi. Sigirlarni servis davri 61 kunni tashkil etdi
	2-nazorat gr. preparat qo'llanilmadi	32	8-bosh sigir tuqqandan keyingi yo'ldosh ushlanib qolishi va endometrit bilan kasallandi. Servis davri 80 kunni tashkil etdi.

Pasdarg'om tumani «Beshbola» fermer xo'jaligi	1-tajriba gr. karbokaz preparati muskul orasiga qo'llanildi.	63	Yil davomida tuqqan 63 bosh sigirdan birortasi tuqqandan keyingi jinsiy kasalliklar bilan kasallanmadi. Samaradorlik 100% tashkil etdi. Sigirlarda servis davri 55 kunni tashkil etdi.
	2-nazorat gr. preparat qo'llanilmadi	25	5 bosh sigirda yo'ldosh ushlanishi kuzatildi, 6 bosh sigir endometrit bilan kasallandi. Servis davri 80 kunni tashkil etdi.
Payariq tumani «Bibisora» fermer xo'jaligi	1-tajriba gr. karbokaz preparati muskul orasiga qo'llanildi.	25	1 bosh sigir kasallandi. Samaradorlik 96,0% tashkil etdi. Sigirlar servis davri 54 kunni tashkil etdi.
	2-nazorat gr. preparat qo'llanilmadi	18	6 bosh sigirda endometrit kuzatildi. Servis davri 87 kunni tashkil etdi.

Preparat qo'llanilmagan nazorat guruhida bo'lgan 25 bosh sigirda 11 boshida tuqqandan keyingi yo'ldosh ushlanib qolishi va endometrit bilan kasallanishi kuzatilgan bo'lsa, ularda kuyga kelib otalanish servis davri 80 kunni tashkil etdi. Payariq tumani «Bibisora» fermer xo'jaligida 25 bosh sigirlarga karbokaz preparati qo'llanilganda ulardan bir boshida endometrit bilan kasallanish kuzatilib, samaradorlik 96,0% tashkil etib, servis davri 54 kunni bo'lganligi kuzatildi.

Tajribadan shu narsa ma'lum bo'ldikim sigirlar tug'ishiga 15 kun qolganda va tuqqan kuni karbokaz, plasentin va ixglyukovet preparatlarini organizmga yuborish bachadonda qon aylanishini yaxshilaydi, moddalar almashinuvini tezlashtiradi, bachadon to'qima xujayralarining intensivligini ta'minlab, bachadon shilliq qavatida apokrin, merokrin, galokrin fermentlar faoliyati faollashadi natijada sigirlarni tug'ish jarayonini yengil kechishini, yuldotsni 6 soat davomida tushishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, olib borilgan tadqiqotlar natijalari ko'rsatishicha, ishlab chiqarish sharoitida 4 ta xo'jalikda sutdan chiqqan bo'g'oz sigirlarni tuqqandan keyingi jinsiy kasalliklarini oldini olish maqsadida plasentin, ixglyukovet va korbakaz preparatlarini sigirlar tug'ishiga 15 kun qolganda va tuqqan kuni yuborib jinsiy kasalliklarni oldini olishda ular yuqori (97,0%) samara berishi aniqlandi. Bundan tashqari, preparat yuborilgan sigirlarni tuqqandan keyingi kuyga kelib, otalanishi nazoratda bo'lgan sigirlarnikidan 20-30 kunga qisqa bo'lishi, birinchi otalantirishda 80-90% sigirlarning otalanganligi tajribalarda aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baliev, S., & Ochilov, J. (2023). Treatment of Retained Placenta in Cows. *Global Scientific Review*, 11, 15-19.
2. Qo'ldoshev, O. U., & Ochilov, J. N. (2022). THE EFFECT OF MICROCLIMATE ON THE SEXUAL MATURITY OF COWS. *Conferencea*, 114-115.
3. Nasirdinovich, A. J., & Urazovich, K. O. (2024, June). PREGNANCY IN COWS EFFECTIVENESS OF FERTADINE IN PREVENTING STAY. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 5, pp. 146-148).
4. Nasirdinovich, A. J., & Urazovich, K. O. (2024, May). PREGNANCY IN COWS THE EFFECTIVENESS OF THE GONADIN DRUG IN PREVENTING STAY. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 5, pp. 149-151).
5. Kuldashv, O. U. (2024). PREVENTION OF PLACE RETENTION IN COWS. *Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science*, 2(5), 471-474.
6. Кулдошев, О. У. (1996). Сравнительная эффективность некоторых препаратов при пироплазмидозах крупного рогатого скота и возможности профилактики (экспериментальные исследования).

7. Болиев, Ш. К., & Кулдашев, О. У. (2018). СТИМУЛИРОВАНИЕ ВОСПРОИЗВОДИТЕЛЬНОЙ ФУНКЦИИ У КОРОВ. In *НАУКА XXI ВЕКА-ВЗГЛЯД В БУДУЩЕЕ* (pp. 120-122).
8. Кулдашев, О. У. (2022, April). ЛЕЧЕНИЯ И ПРОФИЛАКТИКИ ХРОНИЧЕСКИЙ ЭНДОМЕТРИТА У КОРОВ. In *E Conference Zone* (pp. 107-110).
9. Кулдашев, О., Очилов, Ж., & Хамракулов, Н. (2022). Влияние зоогигиенических и технологических режимов на организм животных в условиях жаркого климата. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(1), 176-182.
10. Исаев, М., Кулдошев, О., & Акмалов, Ш. (2022). Вредное воздействие зерноотходов на кроликов. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(1), 120-122.
11. Исаев, М., & Кулдошев, О. (2022). Эффективность гидролизата белка при лечении незаразных болезней телят. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(1), 123-125.
12. Кулдашев, О. У., Мавлонов, С. И., Исаев, М. Т., Очилов, Ж. Н., & Хамракулов, Н. Ш. (2021). НОВОЕ СРЕДСТВО ДЛЯ ПРОФИЛАКТИКИ ЗАДЕРЖАНИЯ ПОСЛЕДА У КОРОВ. In *НАУЧНОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА* (pp. 1387-1390).
13. Кулдашев, О. У. (2018). СИМПТОМАТИЧЕСКОГО БЕСПЛОДИЯ КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА В УЗБЕКИСТАНЕ. In *НАУКА XXI ВЕКА-ВЗГЛЯД В БУДУЩЕЕ* (pp. 125-128).
14. Кулдашев, О. Х., & Муминов, К. З. (2017). УСТРОЙСТВА ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ВОЛОКОННО-ОПТИЧЕСКОЙ ЛИНИИ СВЯЗИ. In *Перспективные информационные технологии (ПИТ 2017)* (pp. 234-236).
15. Кулдашев, О. Х., & Муминов, К. З. (2017). Однонаправленный синхронный режим распространения информационных и шумовых сигналов в оптическом волокне. In *Перспективные информационные технологии (ПИТ 2017)* (pp. 231-234).
16. Балиев, Ш., Шералиева, С., & Муртазин, Б. (2015). Профилактика послеродовых осложнений у коров. in *Library*, 1(4), 79-81.
17. Эшбуриев, Б., & Балиев, Ш. (2022). Сигирларда эндометритни даволашда “карбаказ” препаратининг самарадорлиги. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 339-345.
18. Муртазин, Б., Элмурадов, Б., Болиев, Ш., Наврузов, Н., & Шералиева, С. (2013). Лечение и профилактика гинекологических заболеваний у коров. *Ветеринарна медицина*, (97), 337-338.
19. Балиев, Ш., & Очилов, Ж. (2023). Лечение задержки плаценты у коров. in *Library*, 1(1), 15-19.
20. Балиев, Ш. (2023). Организация акушерско-гинекологической диспансерной работы в животноводстве. in *Library*, 1(2), 205-206.
21. Балиев, Ш., & Эшбуриев, Б. (2022). Эффективность препарата карбаказы при лечении эндометрита у коров. in *Library*, 22(3), 339-345.
22. Балиев, Ш., & Суванов, С. (2022). Современные методы лечения эндометрита у продуктивных коров. in *Library*, 22(3), 25-27.
23. Балиев, Ш., Суванов, С., & Исмоилов, А. (2022). Причины эндометрита у продуктивных коров, содержащихся в хозяйствах. in *Library*, 22(2), 56-58.
24. Балиев, Ш., Муртазин, Б., Кулдашев, О., & Очилов, Ж. (2017). Значение биологических препаратов в профилактике бесплодия крупного рогатого скота. in *Library*, 17(2), 32-34.
25. Балиев, Ш., Кулдошев, О., Мавланов, С., & Курбонов, Ф. (2016). Определение эффективности препаратов при лечении мастита. in *Library*, 16(2), 63-65.
26. Рузимуродов, М., Рузимуродов, М., Улугмурадов, А., & Куватов, Б. (2023). Совершенствование средств диагностики бруцеллёза сельскохозяйственных животных в Узбекистане. in *Library*, 4(4), 16-24.
27. Рузимуродов, М., & Амантурдиева, Н. (2022). Современные подходы к этиологии, эпизоотологии, диагностике и профилактике бруцеллёза мелкого рогатого скота. in *Library*, 22(4), 7-11.